
Tyan-shan florasi bo’yicha yirik ilmiy asar nashr etildi

Atrof-muhitga antropogen omillar salbiy ta’sirini kun sayin ortib borayotgani va yashash muhitlarining qisqarishi biologik xilma xillik obyektlarining inventarizatsiyasi bo’yicha olib borilayotgan zamonaviy tadqiqotlarning dolzarbligini asoslaydi. Aynan bu boradagi izlanishlar o’simliklar xilma xilligi, xususan, uning endemizm fraksiyasi, kamyob va yo’qolib borayotgan turlarini saqlab qolishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham alohida mamlakatlar yoki yirik tabiiy geografik hududlarning flora tarkibini xatlovdan o’tkazish, ma’lumotlarning elektron bazalarini yaratishga talab ortib bormoqda. Agar alohida mamlakatlar darajasida tuzilgan flora konspektlari ma’muriy chegaralar doirasidagi mahalliy o’simliklar, xususan, milliy endemlarni saqlab qolish, tabiiy flora resurslaridan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini belgilab bersa, yirik tabiiy geograifik hududlar bo’yicha bu boradagi tadqiqotlar fundamental xarakterga ega bo’lib, floristik majmualarning shakllanish qonuniyatlari, endemizm o’choqlarini anglashda katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Mana shunday chuqur fundamental va ayni paytda katta amaliy ahamiyatga ega bo’lgan yirik ilmiy asarlardan biri O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Botanika institutida Janubiy Koreya, Rossiya, Finlyandiya, Markaziy Osiyo mamlakatlarining bir qator yetakchi olimlari bilan birga yaratildi. Akademik K.Sh. Tojibayev va boshqalar hammuallifligidagi “Checklist of vascular plants of the Tian-Shan Mountain System” nomli 607 sahifadan iborat bo’lgan kitob joriy yilning fevral oyida Seul shahrida nashrdan chiqdi. Mazkur asarda birinchi marotaba Tyan-shan tog’larining Markaziy Osiyo qismida o’sadigan o’simlik turlarining to’liq tarkibi keltirilgan. Unda Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston va O’zbekiston Tyan-shan qismida uchraydigan 116 o’simlik oilalariga mansub bo’lgan 4283 turning tarkibi, zamonaviy nomenklaturasi, sinonimlari, geografiyasi va endemizm ko’rsatkichlari bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.



Ushbu asar tabiiy flora, o’simliklar geografiyasi va sistematikasi sohalarida faoliyat olib borayotgan olimlarning uzoq yillik mehnatlarining samarasi hisoblanadi. Uni tayyorlash davomida bu yo’nalishlarga oid

bo’lgan bir necha yuz ilmiy manbalarni chuqur tahlili barobarida Toshkent, Olmaota, Bishkek, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlaridagi yirik gerbariy fondlari ma’lumotlarni jalb etilgan. Shuningdek, tadqiqot hududi bo’ylab uzoq yillar davomida olib borilgan keng ko’lamli ilmiy dala tadqiqotlari mavjud ma’lumotlarni boyitishga xizmat qilgan.

O’ylaymizki, bu asar dunyodagi mavjud 36 ta yirik bioxilma xillik o’choqlaridan biri bo’lgan Tyan-shan tog’lari florasi bo’yicha ma’lumotlarni umumlashtirgan manba sifatida uzoq yillar fan rivoji uchun xizmat qiladi.

Kitobning kirish qismi